

**ZAMONAVIY O'ZBEK TILIDA URG'UNING FONOLOGIK
AHAMIYATI**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti

*1-bosqich talabasi **Karimova Shirin Komil qizi***

E-mail: karimovashirin300@gmail.com

Tel: +998 94 253 15 07

Annotatsiya: Ushbu maqolada urg'uning fonologik ahamiyati, turlari hamda joylashish o'rnini haqida batafsil yoritilgan. Maqolada gap urgusi, so'z urg'usi hamda urg'unning o'rniga ko'ra so'zlarning boshqa so'z turkumiga o'tishi yoki gap mazmuni o'zgarishi haqida turli misollar keltiriladi. O'zbek tilida urg'u asosan so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishi bilan ifodalansa-da, ayrim holatlarda urg'uning o'rnini grammatik shaklni, so'zning ma'no nozikliklarini hamda nutq ohangini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Urg'u orqali nutqning ifodaliligi kuchayishi kommunikativ maqsadning aniq yetkazilishi ham ilmiy asosda ko'rib chiqiladi. Natijada esa o'zbek tilining fonologik tizimida muhim vosita ekanligi hamda ma'no va grammatik munosabatlarni ifodalashda faol xizmat qilishi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: fonetik urg'u, mantiqiy urg'u, fonema, bo'g'in, nutq ohangi, talaffuz, ma'no farqlash, zamonaviy o'zbek tili, intonatsiya.

Zamonaviy o'zbek tili hozirgi davrda o'zbek xalqi tomonidan qo'llanilayotgan adabiy me'yorlari shakllangan va davlat tili sifatida ishlatiladigan o'zbek tilidir. U jamiyatning barcha sohalarida ta'lim, ilm - fan, matbuot, davlat boshqaruvi va kundalik muloqotda qo'llaniladi. Odatda so'z urg'ularining biri boshqasidan ajralib zarb bilan, cho'zib talaffuz qilinadi. Bunday talaffuzli bo'g'in urg'uli bo'g'in deyiladi. Urg'u ikki xil bo'ladi: fonetik urg'u va mantiqiy urg'u. Fonetik urg'u ayrim bo'g'inga tushgan oddiy urg'u bo'ladi. Mantiqiy urg'u esa gap tarkibidagi biror so'zga tushib shu so'zning ma'nosiga diqqat jalb qilinadi

va asosiy maqsad ifodalanadi. Mantiqiy urg'uli bo'lakning o'rnini o'zgartirishi ham shu gap bo'lagi ma'nosiga diqqatni yanada jalb etadi, maqsad yanada aniqroq ifodalanadi. O'zbek tilida urg'u asosan oxirgi bo'g'inga tushadi, ammo so'zga qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'u shu qo'shimchaga ko'cha boradi, avvalgi bo'g'inlardagi urg'u esa sustlashadi. Bu holatda so'nggi bo'g'indagi urg'u asosiy urg'u, avvalgi bo'g'indagi urg'u esa yordamchi urg'u deyiladi. Ayrim, asosan, chet tilidagi so'zlar va qo'shimchalar ishtirokidagi so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'indan oldingi bo'g'inga tushishi ham mumkin. Birinchi bo'g'inga urg'u tushadigan so'zlar: hamma, chunki, ya'ni, ammo, lekin, doktor, drama. O'rta bo'g'inga urg'u tushadigan so'zlar: direktor, dorilfunun. Odatda, birinchi va o'rta bog'inlariga urg'u tushadigan so'zlar arab, tojik, rus va boshqa baynalmilal so'zlardir. O'zbekcha so'zlarda ham birinchi va o'rta bo'g'inlarga ba'zi urg'u olmaydigan qo'shimchalar so'zga qo'shilganda urg'u tushishi mumkin. Urg'uning so'zni to'g'ri talaffuz qilishdagi va so'z ma'nosini farqlashdagi xizmat kattadir. Urg'u o'rinning o'zgarishi ayrim so'zlarda noto'g'ri tushunishga yoki so'z ma'nosining o'zgarishiga olib keladi. O'zbek, rus, ingliz va nemis tillarida ma'nodor so'zlardagi urg'u nutqda ham saqlanib qolishi mumkin. So'zlardagi bir yoki undan ortiq bo'g'inlarni ajratib talaffuz qilish turli artikulation - akustik vositalar yordamida amalga oshiriladi. Artikulyatsion jihatdan nafas kuchi, kuchli talaffuz va nutq paytchalari tebranishi so'zga urg'u qo'yishning asosiy vositalaridir. Akustik jihatdan so'z urug'usi intensivlik, cho'ziqlik va tovushning asosiy toni yordamida amalga oshiriladi. Tovushning balandligi va cho'ziqligi urg'uning eshutilishidagi asosiy vositadir. Ko'rsatilgan vositalardan qaysilari bo'g'inni ajratib talaffuz qilishda asosiy ekanligiga ko'ra urg'u turlari farqlanadi. Agar talaffuz kuchi yoki intensivlik asosiy xizmatni bajarsa, dinamik urg'u deyiladi. Asosiy tonning harakati yordamida amalga oshiriluvchi urg'u musiqiy urg'u deyiladi. Bo'g'inning cho'ziq talaffuzi urg'uda asosiy bo'lsa, miqdoriy urg'u deyiladi. Urg'uning o'rniga ko'ra turg'un va turg'un bo'lmagan urg'u farqlanadi. Masalan, fin va chex tillarida urg'u doim so'zning birinchi bo'g'iniga, fransuz va ko'pgina turkiy tillarda so'zning oxirgi bo'g'iniga, polyak tilida esa orqadan ikkinchi bo'g'inga urg'u

tushadi. Turg'un, lekin har xil bo'g'inlarga tushuvchi urg'u rus, ingliz va italyan tillarda mavjud. Frazalar urg'usi, melodiya, ritm, pauza, temp, temvr kabi prosodik elementlarning birligidan iborat bo'lib, tilda har xil sintaktik, ekspressiv va emotsional ma'nolarni ifodalovchi murakkab hodisa intonatsiya deyiladi. Prosodik elementlarning har birini intonatsiyaning komponenti yoki parametri deb yuritiladi. Melodiya va fraza urg'usi intonatsiyaning birlamchi, qolgan elementlar - ikkilamchi komponentlar hisoblanadi. Zamonaviy o'zbek tilida urg'uning asosiy belgilaridan biri uning barqarorligi hisoblanadi. Qo'shimchalar qo'shilganda urg'u odatda yangi bo'g'inga, ya'ni so'z oxirigacha ko'chadi. Bu holat o'zbek tilining agglutinativ xususiyati bilan bog'liq. Masalan, bola, bolalar, bolalarga shakllarida urg'u oxirgi bo'g'inda saqlanadi. Shu bilan birga, ayrim so'zlarda urg'u oxirgi bo'g'inga tushmaydi. Bunday holatlar ko'pincha tarixiy shakllar yoki o'zlashma so'zlar bilan bog'liq bo'ladi: hozir, balki, afsus kabi. Urg'uning fonologik ahamiyati deganda til birliklarining ma'noni farqlashdagi vazifasi tushuniladi. Zamonaviy o'zbek tilida urg'u mustaqil ravishda so'z ma'nosini keskin o'zgartirib yubormaydi. Yani urg'uning o'rni o'zgartirish bilan yangi leksik ma'no hosil bo'lishi ham uchraydi kam uchraydi. Shu sababli, urg'u o'zbek tilida kuchli ma'no farqlovchi vosita hisoblanmaydi. Biroq urg'u grammatik shakllarini ajratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qo'shimchalar qo'shilishi bilan urg'uning siljishi so'zning yangi grammatik shaklga o'tganini bildiradi. Bundan tashqari, urg'u nutqning ritmini, ohangini va intonatsiyasini shakllantirib, gapning mazmunini to'g'ri anglashga yordam beradi. Nutqda urg'uning vazifalari: so'zning fonetik yaxlitligini ta'minlaydi; nutqning ravon va tabiiy eshitilishga yordam beradi; grammatik shakllarni sezdiradi; gapni emotsional bo'yoqdorligini kuchaytiradi. Urg'u gapning ohangini tashkil qiladi, nutqni tabiiy va ravon qiladi. Gapdagi mantiqiy urg'u bilan birgalikda fikrning muhim qismini ajratib ko'rsatadi. Zamonaviy o'zbek tilida urg'u fonetik jihatdan muhim bo'lsada, fonologik jihatdan asosan grammatik va prosodik vazifalarni bajaradi. U so'z ma'nosini keskin farqlashdan ko'ra nutq ritmini tashkil etish, grammatik shakllarni anglash va gap ohangini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Urg'uning oxirgi bo'g'inga

intilishi o'zbek tilining agglutinativ tabiatini aks ettiradi va tilning fonologik tizimida barqaror qonuniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduazizov A.A. O'zbek tilining fonologiyasi va morfonologiyasi. – Toshkent: Fan, 1992. – 45–49-b.
2. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2010. – 29–31-b.
3. Abdurahmonov F., Mamajonov S. O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 52–53-b.
4. Hojiyev A. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1981. – 84–88-b.
5. Nurmonov A., Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 67–72-b.
6. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 112–116-b.